

QO'CHQOR NORQOBILNING "QUYOSHNI KIM UYG'OTADI?" ASARI HAYOT HAQIQATINING BADIY TALQINI

Jamoldinova Risola Qobiljon qizi

Andijon davlat universiteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qo'chqor Norqobilning "Quyoshni kim uyg'otadi?" asaridagi voqelar va real faktlar bir-biriga qiyoslanadi. Asar badiiyati va urush tasviri asarda qanday aks ettirilgani tahlil etiladi.

Kalit so'z: "Quyoshni kim uyg'otadi?", afg'on urushi, ruhiyat, nafrat, urush.

Bugun butun dunyoda odamlar urushga o'tmishdagi voqelik emas, bugunning realligi deb qaramoqda. Ammo bu so'zning asl mohiyatini faqatgina urushni ko'rganlar, jang maydonida bo'lganlarga qalban tushunadi va bu so'zdan qo'rqadi ham, chunki ular urush daxshatini o'z tanasi bilan xis qilgan.

Afg'onistonga qarib yarim asrdan buyun tinchlik so'zi begona. Mamlakat uzoq yillar davomida gegemon davlatlarning o'yin maydoni bo'lib kelgan bo'lsa, yana ko'p yillar ichki nizolarning domida qoldi. Notinchliklar sabab esa, millionlab odamlar hayotdan ko'z yumdi. Mamlakat tarixidagi eng ko'p qon to'kilgan urush esa, shubhasiz, Afg'on urushidir.

SSSR da Afg'on urushidan eng ko'p aziyat chekkan hududlar MARKAZIY OSIYO respublikalaridir. Chunki eng ko'p askar shu hududdagi ittifoqdosh respublikalardan olingan edi. QO'CHQOR NORQOBIL ham aynan o'shalarning biri edi.

O'sha paytda ham Sobiq Sovet hukumati birinchi bo'lib markaziy Osiyoliklarni urushga safarbar qilgan. Harakatdagi armiyaga yordam berish uchun 27-dekabr kuni O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikistondan umumiy hisobda o'ttiz ikki ming zaxiradagi harbiy harbiy xizmatchilar safarbar etiladi. Xuddi shunday, O'zbekiston sobiq Sovet Ittifoqi tarkibida bo'lgan paytda BIZNIKI BO'LMAGAN URUSHga ko'plab o'zbeklar safarbar etilgan.

Jumladan, O'zbekistondan jami oltmish to'rt ming besh yuz nafar yigit Afg'on urushida ishtirok etgan va ulardan bir ming besh yuz yigirma ikki nafari urushda halok bo'lgan. Ikki yarim ming nafardan oshiqroq o'zbeklik askarlar esa butun umrga nogiron bo'lib qolgan. Askarlar, asosan, QO'CHQOR NORQOBIL ham aytib o'z asarida aytib o'tganidek o'n sakkiz, o'n to'qqiz yoshli yigitlar edi.

Qo'chqor Norqobilning "Quyoshni kim uyg'otadi?" asari yuqorida biz ko'rib o'tayotgan real faktlar bilan chambarchas bog'liq va ayni haqiqat. Har holda asar muallifining o'zi bu janglar va to'polonlarni o'z ko'zlari bilan ko'rgan shaxs ekanligi ham fikrimizni dalillash uchun yetarli bo'ladi deb o'ylaymiz.

Asarning 1987-yil 6-may Bagramdagi voqealari o'quvchini beixtiyor sovet askarlariga nisbatan nafratini uyg'otmasdan qolmaydi: "Men to'g'ridagi yonib borayotgan kulba tomidagi qizaloqqa qaradim. U tom o'rtasida o'tirib olgan. Ikkala qo'li bilan quloqlarini berkitib, boshini tizzalari orasiga olib, qimirlamay o'tiribdi. Nozikkina, qotma yelkachalariga tushgan tim qora sochlari va kuragingning chuqurchasini kuzatuv oynasi orqali yaqqol ko'rib turibman... Shu tobda yonimdagi tank pushkasi yonayotgan kulbaga to'g'rilandi. A'zoyi badanim qaltirab ketdi.

–Kuticha, otma... Otma, kuticha... Tom ustida qizaloq bor! Kuticha... Kuticha... – dedim hansirab aloqada.

–Og'zingni yum, Bubep 1 ! Ishingni bilib qil, - tank komandirining qaxrli javobi eshitildi.

Qizaloq battar kichrayib boryapti. BMP-2 kuzatuv oynasidan uning mushtdekkina ozg'in jussasi, tizzalari orasiga boshini yashirib, quloqlarini nozik qo'lchalari bilan berkitib, dag'-dag' titrayotganini yaqqol kuzatib turibman. Qizaloqqa so'ngi bor qaradim. Qayoqqa berkinishni bilmay, majolsiz qolgan sho'rlikka jonim achishdi.

Shu payt tank gumburlab, siltanib ketdi. Tomning qizaloq turgan joyi tir to'zg'ib, kuli ko'kka sovurildi. Qizaloqning ham tanasi titilib ketganini anglab, boshim zirqirab, ko'z oldim qorong'ulashdi. Men ko'zlarimni chirt yumib oldim...

Hamishadagidek yana..."

Aqlu-xushi joyida bo'lgan har qanday inson shundoq ham butunlay yonib ketayotgan uyning tomidagi yosh bolani hohlasi ham qutulib qololmasligini yaxshi tushunishi kerak. Bunday vaziyatda tomida bir go'dak qizaloq turgan va boshqa hech kim u yerda tirik emasligi ongli ravishda bilinib turgan yonayotgan uyga qaratib tank pushkasidan o't ochishi vahshiylikdan va o'ta ketgan ahmoqlikdan boshqa narsa emas. Balki bunday ishni qilish uchun vahshiylik ham kamlik qilar. Balki bu ishni qilganlar qizaloq tezroq va osonroq o'lishi uchun "yordam" berishgandir.

Muallif – personaj bu qirg'inbarot urush alangasi ichida turib, asarning 1987-yil 3-sentabrdagi Jaloloboddagi voqealari so'ngida quyidagi fikrlarni aytib o'tadi:

"Men bu yerlarda nima qilib yurganimni aytolmayapman... Inqilob deyishadi, inqilob bo'lsa afg'onlarning o'zlari qilishavermaydimi, inqilobini... biz afg'on xalqining tinchini buzdik, bir xalqdan do'stu dushman yasadik. Xalqni bir-biriga gij-gijladik... yo'q, bunday emas, bu xalq, menimcha inqilob nima ekanini hayolida ham keltirmaydi. Bizni afg'on xalqiga qanday qilib yordam qo'lini uzatayotganimizni ham tushunmaydi.

Biz bu yerga nima maqsadda kelganmiz? Bilolmayapman. Yoki biz bu yerga bostirib kirdikmikin? Menimcha shunday, aslida. Tavba, nimalar deyapman o'zi?"

Yuqoridagi fikrlar shunchaki bir askarning qiyinchilik, jabr va jahl ustida aytgan gaplari emas. Askar aslida xato bo'lgan urushda, noto'g'ri joyda, keraksiz vaziyatda turganini borgan sari anglab yetmoqda. Ha, haqiqatan ham, sovet askarlari

Afg'onistonga bostirib kirishgan. Bu esa Rossiyaning o'z hududini Markaziy Osiyodan keyin janubga qarab, kengaytirish yo'lidagi harakatlaridan biri xolos. Ular aslo afg'on hukumati va xalqiga yordam bermoqchi, ularni inqilobiga ko'maklashmoqchi emas. Bu shunchaki, SSSR ning niqobi xolos.

Urush maydonida qon kechgan ijodkor uchun aynan shu mavzuda asar yozish, go'yoki urushni qayta kechirgan bilan barobar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Norqobil Q, "Quyoshni kim uyg'otadi?", T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyoti, 2007.
2. Ulug'ov Abdulla, "Adabiyotshunoslik nazariyasi", T.: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
3. Quranov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M., Adabiyotshunoslik lug'ati.-T.: "Akademnashr", 2013